

“TASDIQLAYMAN”
Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti
rektori

_____ **B.Maxkamov**
“ ” _____ **2021-yil**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
AKADEMIK LITSEYI

NIZOMI

Akademik litseyning Ilmiy-pedagogik kengash qarori bilan ma’qullangan
(2021-yil 30-avgustdagi 1-son yig‘ilish bayoni)

Akademik litsey ijrochi direktori

A.Madraximov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti akademik litseyining Nizomi

I. Umumiy qoidalar

1. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti akademik litseyi davlat ta'lim standartlariga mos ravishda o'rta maxsus ma'lumot beruvchi, o'quvchilarni qiziqishi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish, oliy ta'limga maqsadli yo'naltirish, jadal intellektual rivojlanish bilan ta'minlovchi, shuningdek, maxsus chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan alohida mutaxassislik beruvchi davlat ta'lim muassasasidir.

2. Akademik litsey o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining hay'at qarorlari va buyruqlari, oliy ta'lim muassasasi kengashi qarorlari va rektor buyruqlari, yo'riqnomalari, ko'rsatmalari, ta'lim tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ushbu Nizomga asosan amalga oshiradi.

3. Akademik litsey mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, o'z balansiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligida ochilgan hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi tasviri tushurilgan va o'z nomi yozilgan muhrga hamda o'z faoliyati uchun zarur boshqa belgilar va rekvizitlarga ega bo'ladi.

4. Akademik litsey berilgan moddiy texnik bazasini saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirish tadbirlarini amalga oshiradi, shuningek, ajratilgan mablag'lardan ratsional va samarali foydalanishni nazorat qiladi.

5. Akademik litseyning nomi:

Davlat tili kirill alifbosida: - Муҳаммад ал Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети академик лицейи;

Qisqartirilgan nomi kirill alifbosida: - “ТАТУ академик лицейи”;

Davlat tili lotin alifbosida – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti akademik litseyi;

Qisqartirilgan nomi lotin alifbosida: - TATU akademik litseyi;

Rus tilida – **Академический лицей Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммад ал Хорезми;**

Qisqartirilgan nomi rus tilida: - **Академический лицей ТУИТ**;

Ingliz tilida – “Academic lyceum of Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi”;

Qisqartirilgan nomi ingliz tilida: - “Academic lyceum of TUIT”.

6. Akademik litseyning to‘liq manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 112-uy.

II. Akademik litseyning maqsad va vazifalari

7. Akademik litseyning maqsadi – o‘quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o‘zlarining mustaqil o‘rnini topish, ta‘lim va kasblar bo‘yicha dasturlarni tanlash, ularni o‘zlashtirish uchun asos yaratish, fundamental ilmiy-nazariy asoslar nuqtayi nazaridan puxta bilimga ega bo‘lishlari uchun shart-sharoit yaratish, shuningdek, shaxsning jismoniy va ma‘naviy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni ta‘minlash, o‘quv jarayonining sifat va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv, ilmiy salohiyatidan yanada kengroq foydalanishni tashkil etish, oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv-ilmiy salohiyatidan, moddiy-texnik bazasi, ta‘lim va axborot resurslaridan foydalanish, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularni maqsadli ta‘limga yo‘naltirish va pirovard natijada akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta‘lim muassasalariga maqsadli o‘qishga kirishini ta‘minlash.

8. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti akademik litseyi vazifalari:

- oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish imkoniyatini ta‘minlaydigan ta‘lim dasturlarini ishlab chiqarishi va bajarilishini ta‘minlash;
- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining eng iste‘dodoli va iqtidorli o‘quvchilarini tanlab olish;
- davlat ta‘lim standartlari talablari bajarilishini ta‘minlash;
- o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o‘qishni oliy ta‘lim muassasalarida davom ettirishiga chuqur tayyorlash;
- o‘quvchilarga tanlagan ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish;
- o‘quvchilarning ijobiy salohiyati, qobiliyati, individual iste‘dodlarini namoyon bo‘lishi va faollashishiga ko‘maklashuvchi, har bir o‘quvchining mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi ta‘lim muhitini yaratish;
- ilg‘or mahalliy va xorijiy ta‘lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta‘lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish;
- ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishini ta‘minlash;

- akademik litseydagi o'quv jarayonining sifatini davriy ravishda oshirib borish;

- akademik litsey o'qituvchilarining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratini oshirib borish maqsadida doimiy seminar, treninglar o'tkazish;

- akademik litsey o'quvchilarini ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish va ularga oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilaridan ilmiy-metodik rahbarlar tayinlash;

- ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish;

- akademik litsey faoliyatiga oid monitoring natijalarini oliy ta'lim muassasasi kengashi muhokamasiga kiritish;

- akademik litseyning iqtidorli o'quvchilarini olimpiadalar, ko'rik-tanlovlar orqali aniqlash, rag'batlantirib borish, respublika va xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash;

- akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini har o'quv yili boshida tahlil qilish va tegishli chora-tadbirlarni belgilash;

- o'quv-tarbiyaviy jarayonda sog'lom muhitni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi me'yorlarini amalda tatbiq etish;

- o'quvchilarda vatanparvalikni, o'z Vatani bilan faxrlanish his-tuyg'usini rivojlantirish, milliy o'zligini anglash, xalqimizning milliy, madaniy, tarixiy, an'analariga hurmat bilan qarashni kuchaytirish;

- o'quvchilarning izchil intellektual, madaniy va ma'naviy-axloqiy kamol topishiga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

- doimiy ravishda o'qituvchilarning sifat darajasini oshirib borishni ta'minlash;

- o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik mahoratini, shuningdek, ma'naviy yetukligini muntazam oshirib borish;

9. Akademik litseyning majburiyatlari:

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarini, yuqori turuvchi boshqaruv organlarining tegishli buyruqlari va ko'rsatmalari bajarilishini ta'minlaydi;

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq soha yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarning intensiv intellektual rivojlanishini va puxta tabaqalashtirilgan o'qitishni ta'minlaydi;

- o'quvchilarning respublika, xalqaro fan olimpiadalari va ko'rik-tanlovlarda samarali ishtirokini ta'minlaydi;

- doimiy ravishda o'quvchilarning sifat darajasini oshirib borishni ta'minlaydi;

- o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik mahoratini, shuningdek, ma'naviy yetukligini muntazam oshirib borishni ta'minlaydi;

- ota-onalar, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa manfaatdor idoralar bilan o'quv-tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish bo'yicha hamkorlik ishlarini olib boradi;

- o'quvchilarga tanlagan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratib beradi;

- o'quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo'lishi va faollashishiga ko'maklashuvchi individual iste'dodlarni va har bir o'quvchining qobiliyatlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi muhitni yaratadi;

- ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab boradi;

- ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi;

- o'quv-tarbiya jarayonida sog'lom muhitni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi me'yorlarini amalga tatbiq etadi;

- o'quvchilarda vatanparvarlikni, o'z Vatani bilan faxrlanish his-tuyg'usini rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash, xalqimizning milliy, madaniy, tarixiy an'analariga hurmat bilan qarashni kuchaytiradi.

10. Akademik litseyning huquqlari:

- amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseyga o'qishga qabul qilishni, kursdan kursga o'tishini yoki qoldirilishini, boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishini, chetlatilishini hamda qayta tiklanishini, shuningdek, akademik ta'til berishni tashkil etadi, o'qishni tamomlagan bitiruvchilarga Davlat namunasidagi diplom va egallagan mutaxassisligi bo'yicha sertifikat berilishini ta'minlaydi;

- ota-onalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa manfaatdor idoralarga o'quv-tarbiya ishlarini rivojlantirish bo'yicha murojaatlar yo'llaydi;

- turli moliyaviy manbalardan foydalanib, akademik litseyning xususiy (maxsus) fondini shakllantiradi;

- o'qishda (ishda) a'lo ko'rsatkichlarga erishgan o'quvchi va o'qituvchilar hamda ishchi xodimlarni taqdirlaydi (moddiy va ma'naviy), mukofotga taqdim etadi, lozim bo'lganda ularga intizomiy jazo choralarini (xususan jarima qo'llanilishi mumkin) ko'radi;

- akademik litsey ehtiyoji asosida o'rnatilgan tartibda zarur moddiy jihozlarni va boshqa moddiy resurslarni korxonalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda ijaraga oladi yoki xarid qiladi, shuningdek, o'zining bo'sh turgan moddiy jihozlar va boshqa moddiy resurslarini ijaraga beradi.

III. Ta'lim oluvchilar

11. Akademik litseyga o'quvchilarning hujjatlarini qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Akademik litseyga o'quvchilarni qabul qilish bo'yicha akademik litsey direktori raisligida maslahat kengashi tashkil etiladi. Maslahat kengashining tarkibi, uning vakolatlari, huquq va majburiyatlari hamda faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

13. Akademik litseyga qabul qilish, boshqa ta'lim muassasalariga ko'chirish, chetlatish va qayta tiklash, shuningdek, akademik ta'til berishni rasmiylashtirish tegishli qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

14. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq qabul qilingan chet el fuqarolari akademik litsey o'quvchisi bo'lishi mumkin.

15. Akademik litsey o'quvchilarining huquqlari:

- ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash;
- o'quv binolari, laboratoriya, axborot-resurs markazi (kutubxona), sport majmualaridan foydalanish, o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilish va rivojlantirish, o'z salohiyatini o'stirish, o'z bilimlarini fanlar bo'yicha chuqurlashtirish;
- zamonaviy fan va taraqqiyotiga mos bilimlarni olish;
- o'z-o'zini boshqaradigan o'quvchilar organiga saylash va saylanish;
- akademik litsey faoliyatida eng muhim masalalarni hal etishda ishtirok etish;
- akademik litseyning ijodiy faoliyatida ishtirok etish;
- o'quv rejasi doirasidan tashqari, ijtimoiy, sport va fan to'garaklariga qatnashish orqali bilim olish;
- o'z fikrini erkin bayon etish;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bir ta'lim yo'nalishidan boshqa ta'lim yo'nalishiga hamda umumiy o'rta ta'lim maktablariga o'qishni ko'chirish, akademik ta'til olish, qayta tiklash bo'yicha (voyaga yetmaganlar ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar orqali) murojaat qilish;
- turli tanlovlar, respublika va xalqaro olimpiadalarda ishtirok etish;
- o'qishni tamomlagandan so'ng davlat namunasidagi diplom va egallangan mutaxassisligi bo'yicha sertifikat olish;
- biriktirilgan oliy ta'lim muassasasining o'quv laboratoriya-uskunasi, kompyuter texnikasi va boshqa tashkiliy texnika, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalaridan foydalanish;
- umumta'lim fanlar bo'yicha darsliklarni ijara asosida olish;
- o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

16. Akademik litsey o'quvchilarining majburiyatlari:

- akademik litsey nizomi va ichki tartib-qoidalarini talablari, sanitariya-gigiyena me'yorlari va qoidalariga rioya etish;
- davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarida belgilangan o'quv fanlari bo'yicha puxta bilim egallash va to'liq o'zlashtirish;
- odob-axloq qoidalariga rioya etish;
- jamoat tartibiga rioya etish;
- konferensiyalarda va akademik litseyning boshqa o'quv-tarbiyaviy tadbirlarida faol ishtirok etish;
- kiyinish madaniyatiga rioya etish (o'g'il bolalar uchun: qora kostum-shim, oq ko'ylak, galstuk; qiz bolalar uchun: qora kostum-yubka, oq kofta);
- ro'molli qizlar uchun uzun qora (to'q ko'k) kostum (nimcha) -yubka, oq kofta; (ro'mol kostumning ichiga yig'ishtirilgan holda o'ralishi);
- akademik litsey mulki (jhozlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-laboratoriya jihozlari)ga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish;
- chuqurlashtirib o'tiladigan fanlar bo'yicha boshlang'ich ilmiy kuzatishlar olib borish.

IV. O'quv-tarbiyaviy, o'quv va ilmiy-metodik ishlar

17. O'quv-tarbiya jarayonining mazmuni Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv rejalar va o'quv dasturlari asosida belgilanadi. Akademik litseyda ta'lim jarayoni davlat tili hamda rus tillarida olib boriladi.

18. O'quvchilarga akademik litsey o'quvchisi guvohnomasi va reyting daftarchasi to'liq rasmiylashtirilib bepul tarqatiladi.

19. Akademik litseyda o'quv guruhlarini tarkibi 26 nafar o'quvchidan ortiq bo'lmagan tarzda shakllantiriladi. Chuqurlashtirilib o'rganiladigan fanlar (aniq fanlar) bo'yicha akademik litseyda amaliy laboratoriya va seminar mashg'ulotlari kichik guruhlarga bo'lib o'qitiladi.

20. O'quv yilining boshlanishi va uning tugallanish muddati o'quvchilarning haftalik yuklamasi va yakuniy nazoratlari hamda ta'tillarning davomiylik muddati, shuningdek, o'qishni yakunlash shakllari va turlari o'quv rejalarini asosida amalga oshiriladi.

Akademik litseyda o'qitishning kunduzgi shakliga amal qilinadi. O'qish muddati 2 yil.

Akademik litseyda barcha o'quv mashg'ulotlari uchun ikki akademik o'quv soat davomiyligi 80 daqiqa etib belgilanadi.

21. Akademik litseyda birinchi kungi mashg'ulotlar ta'lim muassasalari ishlab chiqqan tadbirlarga muvofiq vazirlik va idoralar, ularning joylardagi bo'linmalari, hokimlik, homiylik jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida tantanavor ruhda O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini olib chiqish va madhiyasini ijro etish bilan boshlanadi.

22. Akademik litseyda o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, tajribali mutaxassislar jalb etiladi.

Akademik litseyni tasarrufiga olgan oliy ta'lim muassasasi reja asosida akademik litseyning o'quv-tarbiyaviy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik ishlarini tahlil etadi, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatadi.

23. O'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini baholash amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

24. Akademik litseyda tarbiyaviy ishlar milliy an'analarimiz va umuminsoniy qadriyatlarimizdan kelib chiqib tashkil qilinadi. Tarbiyaviy ishlar o'quv jarayoni bilan birgalikda oilalar, mahalla, jamoat tashkilotlari, shaxsning ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi, O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik tamoyillariga sodiq va jamiyatning rivojiga real hissa qo'sha oladigan davlat va nodavlat tashkilotlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

25. Akademik litsey o'quvchilarini umumta'lim fanlar bo'yicha darsliklar bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari respublika maqsadli kitob jamg'armasining mablag'lari hisobiga ijara asosida amalga oshiriladi. Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan o'quvchilar umumta'lim fanlari bo'yicha darsliklar bilan budjet mablag'lari hisobidan bepul ta'minlanadi.

26. O'qishdagi yutuqlari, o'quv-ilmiy, ijodiy faoliyati va boshqa ishlarda faol qatnashganligi uchun akademik litsey o'quvchilariga turli xil ma'naviy va moddiy rag'batlantirishlar belgilanadi.

27. Akademik litseyda qanday sabablardan qat'i nazar, nazorat ishlarining istalgan turidan o'quvchilarni ozod qilishga yo'l qo'yilmaydi.

28. O'qitish har bir kursda barcha fanlar bo'yicha yakuniy nazorat bilan yakunlanadi.

29. O'quv yilining tugallanishi, o'quvchilarni kursdan kursga o'tkazish, o'quv yilining yakuni bo'yicha qo'shimcha tadbirlar tantanali ravishda amalga oshiriladi. A'lochi o'quvchilar akademik litsey faxriy yorliqlari va boshqa sovg'alar bilan taqdirlanishi mumkin.

30. Akademik litseyda o'qishi davomida fanlarni o'zlashtira olmagan hamda o'rnatilgan tartib-qoidalariga rioya qilmagan o'quvchilar birinchi bosqich natijalariga ko'ra kursda qoldirilishi mumkin.

31. O'quv rejada belgilangan barcha fanlarni to'liq o'zlashtirgan o'quvchi akademik litsey direktorining buyrug'iga asosan yakuniy davlat attestatsiyasiga qo'yiladi.

32. Akademik litsey bitiruvchilariga maxsus chuqurlashtirilgan, tayyorgarlikni talab etmaydigan alohida mutaxassisliklar beriladi.

Maxsus chuqurlashtirilgan, tayyorgarlikni talab etmaydigan alohida mutaxassislik bo'yicha davlat namunasidagi diplom o'rnatilgan tartibda bitiruvchilarga topshiriladi.

33. O'quv rejasida nazarda tutilgan fanlardan yakuniy baholarning kamida 86 foizi "a'lo" va qolgan fanlardan "yaxshi" bo'lgan, yakuniy hamda jamoat ishlarida faol ishtirok etgan o'quvchilarga a'lo darajali diplom beriladi.

34. Bitiruvchilarga diplom va sertifikatlar akademik litseyda tantanali tadbirda topshiriladi. Tadbirga ularning ota-onalari, oliy ta'lim muassasalari vakillari, hamkor korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari taklif etiladi.

35. Yakuniy davlat attestatsiyasida ijobiy baho olgan o'quvchiga belgilangan tartibda akademik litseyning tamomlaganligi to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi.

36. Akademik litseyning o'quv-tarbiya jarayoniga birlashtirilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-uslubiy rahbarlik qiladi.

37. Oliy ta'lim muassasasining akademik litseylardagi o'quv jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha ko'maklashish darajasi quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

- o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlari dinamikasi;

- o'quvchilarning fan olimpiadalari, ko'rik-tanlovlardagi yutuqlari;

- o'qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash dinamikasi;

- o'qituvchilarning turli ko'rik-tanlovlarda erishgan natijalari;

- o'qituvchilarning chop etilgan o'quv, ilmiy-metodik ishlanmalari.

V. Akademik litseyning tuzilishi

38. Akademik litsey shtatlari jadvali amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi.

39. Akademik litseyda pedagogik kengash, metodik kengash, ota-onalar kengashi tuziladi va faoliyat yuritadi.

40. Akademik litsey tarkibida kasaba uyushma, xotin-qizlar ko'mitasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, murabbiylar kengashi va akademik litseydagi ta'lim-tarbiya jarayoniga daxldor bo'lgan boshqa jamoat tuzilmalari tashkil etilishi mumkin.

41. Akademik litseyda fan kafedralari va birlashtirilgan oliy ta'lim muassasalarining kafedra filiallari tashkil etiladi.

Akademik litseyda tashkil etilgan kafedralar ular faoliyati to'g'risidagi Nizomlar bilan tartibga solinadi.

42. Akademik litsey o'qituvchilari tegishli oliy ta'lim muassasasining kafedralariga va tajribali professor-o'qituvchilariga birlashtiriladi hamda ular o'rtasida ta'lim sifatini oshirish borasida hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

43. Akademik litseyning pedagogik kengashida oliy ta'lim muassasasining akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha mas'ul tarkibiy bo'linma rahbarlari ishtirok etadi.

Akademik litsey ma'muriyati akademik litseydagi o'quv-tarbiya va ilmiy-metodik ishlar samaradorligi bo'yicha oliy ta'lim muassasasining kengashida hisobot beradi.

Oliy ta'lim muassasasi kengashi yig'ilishlarida akademik litsey direktori ishtirok etadi.

VI. Pedagog xodimlar, o'quv-tarbiyaviy xodimlar

44. Akademik litseyda xodimlarni pedagogik faoliyatga jalb etish oliy ma'lumotli, pedagogik ish tajribasiga ega bo'lgan shaxslar orasidan belgilangan tartib asosida tanlov yo'li bilan amalga oshiriladi.

45. Ishga qabul qilinuvchining huquq va majburiyatlari hamda ishni tashkil qilish sharoitlari O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi bo'yicha, shuningdek, mehnatga haq to'lash o'quv muassasasiining pedagog-xodimlari uchun tarifikatsiya asosida, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar uchun shtat jadvaliga ko'ra amalga oshiriladi.

46. Akademik litsey pedagog-xodimi va boshqa pedagog kadrlarga qisqartirilgan ish vaqti belgilanadi, har yili mavjud imtiyozlarga ega uzaytirilgan pulli mehnat ta'tili beriladi.

47. Pedagog-xodimlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyaga jalb etiladi va attestatsiya natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror asosida pedagog-xodimlarning malaka toifalari ko'rib chiqiladi.

48. Akademik litsey boshqaruv va pedagog-xodimlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ko'rsatmasi asosida belgilangan muddatlarda malaka oshirish kurslariga jalb etiladi.

49. Akademik litsey rahbar hamda pedagog-xodimlarining lavozim majburiyatlari va huquqlari amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida belgilanadi.

50. Akademik litsey pedagog-xodimlari va ishchi xodimlari amaldagi qonun hujjatlariga asosan oliy ta'lim muassasasi rahbariyati bilan kelishilgan holda direktorning buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi yoki o'z lavozimidan ozod etiladi.

VII. Akademik litseyga rahbarlik qilish

51. Akademik litseyni boshqarish oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Akademik litsey direktori belgilangan tartibda tanlov natijalari asosida oliy ta'lim muassasasi rektorining tavsiyasiga ko'ra Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi buyrug'i asosida lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

52. Akademik litsey direktori huzurida pedagogik kengash tashkil etiladi. Pedagogik kengashning funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

- akademik litsey taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini, ta'lim sifatini oshirish va takomillashtirish, qo'shimcha moliyaviy mablag'larini jalb qilish, moddiy – texnik bazani mustahkamlash yo'llarini belgilaydi;

- ta'lim mazmunining turli shakllari (o'quv rejasi, dasturi, qo'llanmalar), o'quv-tarbiya jarayonining uslublari va ularni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqadi, o'quvchilarni qabul qilish, kursdan kursga ko'chirish, o'qishdan chetlashtirish masalalarini muhokama qiladi hamda amalga oshiradi;

- maslahat kengashi, fan kafedralari hisobotlarini eshitadi va muhokama qiladi;

- pedagog-xodimlarning malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, pedagogik tajribasini ommalashtirish ishlarini tashkil qiladi;

- pedagogik kengash o'z faoliyatini belgilangan tartibda tasdiqlangan reja asosida olib boradi.

53. Akademik litseyning umumiy faoliyatini boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Akademik litsey direktori pedagogik kengash raisi hisoblanadi. Akademik litsey direktori o'quv muassasasi nomidan ish yuritadi: boshqa tashkilotlar bilan bog'laydi, uning moddiy bazasini mustahkamlaydi, shartnomalar tuzadi, ishonch qog'ozlari beradi, banklarda hisob raqamlari ochadi, o'quv muassasasi doirasida barcha pedagog-xodimlar, ishchilar va o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan buyruq hamda ko'rsatmalar beradi.

54. Akademik litsey direktori:

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlaydi, ta'lim muassasasi faoliyatini yaxshilash, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, uning bajarilishi va natijasi ustidan nazorat qiladi, o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqich va bo'limlari faoliyatini tashkillashtiradi;

- akademik litseydagi ishlarning sifati va samaradorligiga, bolalik va mehnatni himoya qilish talablarining bajarilishiga javobgardir;

- darsdan tashqari ishlarni tashkil etilishiga zarur shart-sharoitlar yaratib beradi;

- o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtiradi va tashkil etadi. Uning bajarilishi va natijasi ustidan nazorat qiladi;

- davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalar va dasturlarni bajarilishini, akademik litsey Nizomi talablariga rioya qilishni ta'minlaydi;

- davlat va jamoa tashkilotlarida ta'lim muassasasi manfaatlarini himoya qiladi, ta'lim muassasasining yillik va oylik ish rejalarini tasdiqlaydi, o'qituvchilar yillik ish rejalarini tasdiqlaydi, o'qituvchilar ish rejalarining o'quv va pedagogik yuklamalarini bajarilishini nazorat qiladi;

- o'quvchilar tomonidan tizimli bilimlar olinishini ta'minlaydi;

- o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni va ta'lim vositalarini kiritadi;

-o'z vakolati doirasida ta'lim muassasasining moliyaviy xo'jalik masalalarini hal etadi, budjet va budjetdan tashqari moliyaviy mablag'larni shakllantiradi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydi;

-o'quv jihozlari va boshqa o'qitish vositalarining saqlanishini ta'minlaydi, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish ishlarini tashkil etadi;

- pedagog kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishni amalga oshiradi, shtat jadvalini belgilangan xizmat doirasida tasdiqlaydi, pedagog-xodimlar attestatsiyasini tashkillashtiradi;

- xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, mehnat, ishlab chiqarish, ijro intizomi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishini ta'minlaydi;

- xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiyaga boshchilik qiladi, maxsus komissiya qarori asosida xodimlarga qo'shimcha haq, bir martalik mukofot va moddiy yordamni ta'minlaydi;

- vasiylik kengashi, ota-onalar, mahalla qo'mitasi, jamoat va homiy tashkilotlari bilan o'quv-tarbiya ishlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik ishlarini olib boradi;

- o'smirlarning huquq va manfaatlarini himoyalash va muhofazalash bo'yicha talabnomalarga amal qilinishini ta'minlaydi;

- mehnatni muhofazalash va texnika xavfsizligi bo'yicha ishlarni tashkil etadi, kam ta'minlangan oila farzandlarini ijtimoiy himoyalash ishlarini tashkil etadi;

- o'quvchilar turar joyiga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun sharoitlar yaratadi;

- bitiruvchilar bandligini ta'minlash ishlarini tashkil etadi, monitoringini olib boradi;

- malaka oshirish uchun sharoit yaratiladi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini og'zaki va yozma murojaatlari bo'yicha qabul qiladi;

- akademik litsey bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi, akademik litsey faoliyati natijalari uchun shaxsan javob beradi.

55. Akademik litsey direktori amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

VIII. Jamoat tashkilotlari

56. Akademik litsey tarkibida kasaba uyushmasi, xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, akademik litseydagi ta'lim tarbiya jarayoniga daxldor bo'lgan boshqa jamoat tuzilmalari faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va ushbu Nizom asosida olib boriladi.

IX. Akademik litseyning mol-mulki va mablag‘lari

57. Akademik litsey faoliyatini moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar;
- davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari ro‘yxatiga kiritilgan ilmiy dasturlarni maqsadli moliyalashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari buyurtmasi bo‘yicha tanlov asosida bajariladigan ishlar uchun ajratiladigan mablag‘lar;
- yuridik va jismoniy shaxslarining homiylik mablag‘lari;
- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar;

58. Akademik litseyning moliyaviy vositalari to‘la o‘zining qaramog‘ida bo‘ladi, musodara qilinmaydi, akademik litsey qonunda belgilangan tartibda ulardan foydalanadi.

59. Akademik litseyning yer maydoni, bino va inshootlari hamda mol-mulkini boshqa muassasalarga berish yoki o‘tkazish akademik litseyi tasarrufiga olgan oliy ta‘lim muassasasi bilan kelishilgan holda Oliy va o‘rta maxsus vazirligi roziligi bilan amalga oshiriladi.

60. Oliy ta‘lim muassasasi budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan tasarrufidagi akademik litsey uchun o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sarflash materiallari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini sotib olish hamda akademik litseyning o‘qituvchi va o‘quvchilarini moddiy qo‘llab-quvvatlaydi.

61. Kam ta‘minlangan o‘quvchilarga ichki imkoniyatdan kelib chiqib, akademik litseyning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moddiy yordam ko‘rsatiladi.

X. Yakunlovchi qoidalar:

Akademik litseyi qayta tashkil etish va tugatish.

62. Akademik litsey O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tashkil etiladi va tugatiladi.

63. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o‘rnatilgan tartibda Davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi va kuchga kiritiladi.

64. Nizomga o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar kiritish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti akademik litseyining 2021-yil 30-avgustdagi pedagogik kengashida (1- sonli bayonnoma) muhokama qilingan.

Akademik litsey ijrochi direktori:

A.X.Madraximov